



TALABALARNING TASAVVUR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

To'xtayeva Z.Sh.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Magistratura bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Aripjanova M.A.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti "Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring" kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tasavvur kompetensiyalari, ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ta'lim metodlari, faol o'qitish, o'quv muhiti, o'z-o'zini baholash, innovatsion g'oyalar.

Ключевые слова: образные компетенции, творческое мышление, решение проблем, методы обучения, активное обучение, среда обучения, самооценка, инновационные идеи.

Key words: imaginative competencies, creative thinking, problem solving, teaching methods, active learning, learning environment, self-assessment, innovative ideas.

Резюме:

Ushbu maqolada talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va hukumat qarorlari, talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlari ta'lim jarayonida muhim rol o'ynashi, talabalarning tasavvur kompetentligini oshirishda o'qitish metodlari, o'quv muhitining ijobiy ta'siri va o'z-o'zini baholash usullarining samaradorligi, ta'lim jarayonini takomillashtirish va tasavvur kompetensiyalarini oshirish uchun tavsiyalar keltirilgan.

Резюме:

В данной статье важную роль в образовательном процессе играют научные исследования и правительственные решения, направленные на развитие воображения учащихся, способности учащихся творчески мыслить, решать проблемы и развивать инновационные идеи, методы обучения совершенствованию воображения учащихся, образовательные данные положительное влияние окружающей среды и эффективность методов самооценки, рекомендации по совершенствованию учебного процесса и повышению воображения компетенций.

Summary:

In this article, scientific research and government decisions aimed at developing students' imagination, students' ability to think creatively, solve problems and develop innovative ideas, teaching methods to improve students' imagination, educational data on the positive impact of the environment and the effectiveness of self-assessment methods, recommendations for improving the educational process and enhancing students' imagination competencies play an important role in the educational process.

Kirish. O‘zbekiston hukumati ta’lim sohasidagi qaror va hujjatlari, tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar asosida ta’lim jarayonini yangilash, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish maqsadida keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonunda yoshlar o‘rtasida ijodiy va tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan qator muhim tamoyillar belgilangan.

Tasavvur kompetensiyasi – bu shaxsning o‘z fikrlarini, g‘oyalari va his-tuyg‘ularini yaratish va ifodalash qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim tizimida bu ko‘nikma talabalarning yaratuvchanlik, muammolarni hal qilish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalarning tasavvur kompetensiyalarini qanday rivojlantirish mumkinligi haqida turli pedagog va psixolog olimlarning qarashlari mavjud. Tasavvur kompetensiyalari ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini anglatadi. Ushbu maqolada, turli ilmiy ishlar va tadqiqotlar asosida talabalarning tasavvur kompetensiyalarini tahlil qilamiz, ularning rivojlanishida ta’lim metodlari va muhitining ta’sirini ko‘rsatamiz.

Tasavvur kompetensiyalarining ta’rifi va ahamiyatini ko‘rib chiqamiz. Tasavvur kompetensiyalari, bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va muammolarni innovatsion tarzda hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishlariga, professional hayotda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Olimlarning ilmiy ishlarida bu kompetensiyalarni quyidagi jihatlari ta’riflanadi:

- ijodiy fikrlash orqali talabalarning muammolarni yangi yo‘llar bilan hal qilish qobiliyati;


- kreativ muammolarni hal qilish natijasida talabalar turli xil vaziyatlarga moslashishi va innovatsion yechimlar taklif qilishlari.

Ta’lim sifati va talabalarning izlanuvchalik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasavvur kompetensiyasining ahamiyati katta bo‘lib, ayniqsa, o‘quv faoliyati va mustaqil ishlarni bajarishga muhim ta’sirini ko‘rsatadi.

Tasavvur kompetensiyasi talabalarga quyidagi sohalarda yordam beradi:

1. Yaratuvchanlik – yangi g‘oyalarni yaratish va eski g‘oyalarni yangicha talqin qilish qobiliyatini oshiradi.

2. Muammolarni hal qilish – tasavvur orqali talaba muammolarga yangi yechimlar topa oladi.



1-rasm. Talabalarning tavassur kompetensiyalarini rivojlantirish usullari

3. O'ziga xos fikrlash – talabalar o'z fikrlarini ifodalashda va boshqalar bilan muloqot qilishda mustaqil bo'lishadi.

Talabalarining tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning turli usullari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat (1-rasm):

√ ijodiy fikrlash mashg'ulotlari, bu talabalarni ijodiy fikrlashga

rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, misol uchun, "noan'anaviy" savollar berish va ularni muhokama qilish asosida tashkil qilinadi;

√ san'at va madaniyat, bu usulda san'at, drama, musiqa va boshqa madaniy faoliyatlar orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga o'rganishadi. Bu usul tasavvurlarini kengaytiradi va ularni o'z-o'zidan yaratuvchanlikka undaydi;

√ tadqiqot loyihalari usulida talabalarga o'zlari qiziqadigan mavzuda tadqiqot olib borish imkoniyatini berish ko'zda tutiladi. Bu jarayon, ularga muammolarni aniqlash va ularni yechish uchun yangi g'oyalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi;

√ interfaol o'yinlar usulida interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar orqali talabalar tasavvurlarini rivojlantirish va guruhda ishlash ko'nikmalarini oshirish mumkin;

√ ochiq muloqot usulida talabalar o'rtasida ochiq muloqotni rag'batlantirish, bu esa o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rish va yangi g'oyalarni qabul qilish imkoniyati yaratiladi.


Talabalarining tavassur kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidan ko'rinib turibdiki, ta'lim metodlari ko'plab ilmiy tadqiqotlar, tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'lim metodlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Misol uchun, faol o'qitish usullari (guruhli ishlash, loyiha asosida o'qitish) talabalarining ijodiy fikrlashini rag'batlantirishi aniqlangan.

Bir qator olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, guruhli ishlash usuli bilan o'qitilgan talabalar ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishda ancha muvaffaqiyatli

bo‘lishgani ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari, talabalar orasida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qitish jarayonida faol ishtirok etish zarurligini isbotlaydi. Dars jarayonidagi o‘quv muhitining talabalar tasavvur kompetensiyalariga ta’siri ham ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan va ijobiy o‘quv muhitining talabalarning ijodiy qobiliyatlariga ta’sirini tahlil qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishi va tajriba almashishi uchun qulay sharoitlar yaratish, tasavvur kompetensiyalarini oshiradi.

Shuningdek, talabalar o‘z-o‘zini baholash, o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berishi talabalarning tasavvur kompetensiyalarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayrim tadqiqotida talabalarning o‘z qobiliyatlarini baholash jarayonida o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘zgarishga tayyorlik va o‘z bilimlarini yangilash qobiliyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini baholash, talabalarning o‘z ustida ishlash va rivojlanishlariga imkon beradi.

Demak, talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishda ta’lim metodlari, o‘quv muhitining ijobiy ta’siri va o‘z-o‘zini baholash usullarini qo‘llash zarur. Ushbu jihatlarni hisobga olib, ta’lim jarayonida quyidagi tavsiyalar beriladi (2-rasm):



2-rasm. Talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tavsiyalar

- √ faol ta’lim usullarini qo‘llash orqali talabalar orasida ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan faol o‘qitish usullaridan foydalanish;
- √ o‘quv muhitini rivojlantirish natijasida talabalarning erkin fikrlashiga va tajriba almashishiga imkon beruvchi muhit yaratish;
- √ o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantirish bilan talabalarga o‘z qobiliyatlarini baholash imkoniyatlarini taqdim etish.

Talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonining muhim jihati bo‘lib, ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar bu kompetensiyalarni rivojlantirishda



samarali metodlar va muhitni aniqlashga yordam beradi, shuning uchun ta'lim tizimida bu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, talabalarning tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Yuqorida keltirilgan usullar yordamida talabalarga yaratuvchanlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam berish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Talabalarni tasavvur va ijodkorlikka yo'naltirish, ularni yangi g'oyalar yaratishga va hayotda muvaffaqiyat qozonishga undaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. (2020). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonuni. (2019). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
3. Yosh, M. & Sharif, A. (2020). Guruqli ishlash usulining talabalar ijodiy fikrlashiga ta'siri. Ta'lim va fan jurnali, 12(3), 45-58.
4. Kamalova, D. (2019). O'quv muhitining ijodiy qobiliyatlar rivojlanishidagi roli. O'zbekiston ta'limi jurnali, 9(2), 33-40.
5. Rasulova, N. (2021). O'z-o'zini baholash va tasavvur kompetensiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pedagogika tadqiqotlari jurnali, 15(1), 25-32.
6. Daminov, L. O., & Tukhtaeva, J. P. T. Z. S. (2020). Nigora Zakiraliyeva Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 4, 6669-6674.